

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434036>

**ERKIN A'ZAMNING "SHOIRNING TO'YI" QISSASIDA QATAG'ON
DAVRIDAGI BESHAFQAT HAYOT VA SADOQATSIZLIK OSTIDA
RUHAN EZILGAN INSONLAR HAYOTI**

Qavuljonova Dildora Shirinboy qizi

JDPU O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: **Tulishova Gulzina Ravshanovna**

JDPU O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Erkin A'zamning ushbu qissasida hayotning turli sinovlari charxpalagiga girofdor bo'lib, o'sha davrning inson nomiga noloyiq bo'lganlar qo'lida fidokorona halok bo'lgan insonlarning hayoti tasvirlanadi. Ushbu qissa real hayotdan olingan bo'lib, birgina otashqalb shoirning umri davomidagi chizgilar, uning qalbida so'nmas alamlar hayot bilan bog'langan holda tadbiiq etiladi.*

***Kirish so'zlar:** Otashqalb, shogirtlar, Oqsoqol, Usmon Nosir, o'zbek, ozodlik, sadoqat, xiyonat, real, katta zal, SSR, Sibir, pianino.*

***Abstract:** In this short story of Erkin Azam, the lives of people who died selflessly at the hands of those who were unworthy of the name of human are depicted in this story of life. This story is taken from real life.*

***Keywords:** Atashqalb poet, disciples, Elder, Usman Nasir, Uzbek, freedom, loyalty, betrayal, real, big hall, SSR, Siberia, piano.*

***Аннотация:** В этом рассказе Эркина Азама в этой истории жизни изображены жизни людей, самоотверженно погибших от рук тех, кто был недостойн имени человеческого. Эта история взята из реальной жизни.*

***Ключевые слова:** поэт Аташқалб, ученики, старейшина, Усман Насир, узбек, свобода, верность, предательство, реальность, большой зал, ССР, Сибирь, фортепиано.*

Kirish

O'zbek adabiyotining buyuk adiblaridan biri bu Erkin A'zam (1950-yil 10-avgust) hisoblanadi. Erkin A'zam o'zining asarlarini yetuk darajaga olib chiqqan va shu bilan birga hozirgi hayotning ham ayrim chigal masalalarini muhokama qilishni ham mujassamlashtirgan. Uning "Shoirning to'yi" qissasi, o'tgan asrning 30-yillari ya'ni 1956-yildagi voqealarni o'z ichiga oladi. "Shoirning to'yi" qissasida bosh obraz Otashqalb bo'ladi. Buyuk qalam sohibi millatsevalik, insonparvarlik tuyg'ulari aks etgan Otashqalb shoir, zulmkor, sadoqatsiz, adolatsiz insonlar orasida qolib ruhan halok bo'lgan bir paytda uning yaqinlari ham undan vos kechganliklari otashqalbni ichidagi shirin xotiralarni vayron qiladi. Qissa SSR davrida o'z huquqlariga ega bo'lolmagan, aybsiz insonlarni o'z oilasidan ayirib, ularni hayotlariga oxirgi nuqtani qo'yib Sibrga surgun qilingan shoirlar hayoti birgina otashqalb orqali ochib beriladi. Otashqalbning sakson yilligi munosabati bilan bir katta zalda yig'in o'tqaziladi. Bu yig'in oddiy yig'in emas edi, balki uning hayoti edi. Bu zalda esa uning barcha yaqinlari-yu, uni do'sti bo'lib unga pichoq suqqan insonlargacha yig'iladi. Otashqalb shoir esa shavqatsiz tuzum va g'animlar qurboni, millatsevar inson bo'lgani uchun taqqirlangan va Sibrga surgun qilingan edi. O'zi uchun atalgan yig'inida esa tanasi o'lgan ammo ruhan sog'lom tarzda zalning bir burchagida hech kim tanimaydigan ahvolda qo'lsiz oyoqsiz tarzda qatnashadi. Qora qismatga duchor bo'lishiga sababchi insonlar qatorida uning sadoqatsiz do'sti oqsoqol bo'lib aynan o'zini oqlash maqsadida, mana shu yig'inni tashkillashtiradi. Oqsoqol Otashqalbni do'sti sifatida uning ortidan ikkiyuzlamachilik qilib, hatto ishq tug'yonlari qalbida otash bo'lib Moviyko'zni sevib yurgan vaqtida ham unga vafosizlik qiladi. Moviyko'z ham ayollik makrini ishlatib Otashqalbni ortidan pichoq uradi. Uning yig'inida faqatgina shoirni kulib ayblarini ochadigan odamlar emas edi, yo'q uni nomini sharaf ila tarix zarvaraqlarida saqlash uchun uning shogirtlari bor edi. Ular faqat shogirt emas balki uning farzandlari sifatida ushbu qissada yoritiladi. Otashqalb obrazida katta reallik aks etgan. Ushbu qissada juda ko'p o'rinlarda dinni ham qoralagan va shu o'rinda ilmsiz insonlar, qalbida imyon yo'q bir doiradan chiqmay qolgan, ko'ngli qora insonlar ham

ko'rsatib beriladi. Otashqalb hayoti shu qadar achinarli tarzda aks ettirilganki, uning Sibrga surgun qilingan vaqtida ham o'z ijodini to'xtatmadi, o'sha och qolgan satrlarni ham to'ldirishga o'z vaqtini ajratdi. Ushbu zalda hayotini oxirgi daqiqalarini o'tqazayotgan Otashqalb biror daqiqalarda haqiqat oz bo'lsada yuzaga chiqib qaror topishiga umidlanib ich-ichidan ado bo'lib o'tirar edi. Otashqalbn qilgan ijodi katta meros bo'lib qolishligi uchun uning barkamol farzandlari uning nomini abadiylashtirishga kurashadilar. Ushbu qissada o'sha davr hayoti tasvirlanib, zo'ravon tuzim va umrning, chigalligi birma-bir ko'rsatib berilgan. Qissadagi barcha obrazlarda kinoya o'rnida keltirib o'tilgan. Qissaning boshlanishida avji bahor deb keltirib o'tiladi. Bahor umrning eng gullagan chog'iga qiyoslanadi, gullarning ochilishi, daraxtlarning gullashi va oxirida kurtak ochishi huddi hayotimizning qayta-qayta yangilanishiga o'xshaydi. Qissada esa Otashqalb shoir huddiki, shu onlarni intiqib kutayotgandek, yana yigitlik davrining eng gullagan vaqtiga tushib qolayotgandek umidlanardi go'yo. Hayot go'yoki bir pianino uning oq va qora klavishlari bor, uning qaysidan yurish esa insonyatning o'ziga bog'liq deb aytolamiz. Qissada til o'rinlari mavjud bo'lib, Makfuraxonim sahnaga chiqqan vaqti "Ikkinchi ona tilini" yaxshi bilar edi degan jumla keltirib o'tiladi. Bu esa bizning ona tilimizga o'sha vaqtda berilgan taqqir edi. Bizning muqaddas ona tilimizga berilgan e'tibordan foydalanib, har kim o'z ona tilisini mukammal bilishi zarur, zero til azizdir. Umuman olganda qissada ikki davr parallel ravishda keltirib o'tilgan, birinchisi bu qatag'on davr voqealari bo'lsa, ikkinchisi esa erkinlik davri voqealari hisoblanadi. Qissaning yakunida oqsoqol yurak huruji va "qo'l oyoqsiz hunik bir yuzdan" bo'g'ziga tushgan zarba natijasida fojiali tarzda vafot etadi. Bunday fojiali tarzda vafot etishi uning o'tmishdagi ayblari uchun berilgan jazodir. Otashqalb uchun qissa davomida "o'lim" so'zi ishlatilmaydi. Chunki Otashqalb dillarda mangudir u hech qachon o'lmaydi, uning asarlari hech qachon yo'q bo'lmaydi. Uning ijodi ham nomi ham abadiydir. Ushbu qissada shoirning ismi keltirilmaydi, chunki qatag'on davrida nomi chiqmay, ijodi esa ko'kka sovurilgan qalbining tub tubida alam bilan vafot etgan Otashqalblar xotirasi dillarda o'chmasdir. Qissaning mohiyatida esa ana shunday shoirlar hayoti ko'rsatib berilgan. Shunday

sharafli insonlar haqida O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo eslab shunday yozadi:”Meni qamaganing sababi,sen millatchisan,millatchiligim nima?Millatchi Usmon Nosir,Abdulla Qodiriyi maqtagansan.Endi men bilan bitta to‘dada sud qilinganlar:Hamid Sulaymon, professor, olim, Alimuhammedov. Ularni qamashiga sabab bo‘lganki, Pushkinni o‘tgan vaqtda sening xayolingga bosqinchi Bobur kelgan.Ha,sen demak bizning hayotdan norozisan.Pyotr Birni otgan vaqtingda sening ko‘z oldinga bosqinchi Temur kelgan. Ha, sen o‘sha davrlarni qo‘msayapsanmi?Demak Sovet hayotiga qarshisan deb ularni olib kelgan’’,”Umuman Sovet hukumati odamlarni,ziyolilarni qamash uchun hech sabab kerak bo‘lmagan.Xoxlagan bahosini topgan. Shuning uchun men, Hamid Sulaymon, Alimuhammedov Abdurahmon, Mirzakalon, Shuhrat hammamiz sakkiz kishi bir to‘da bo‘lib yigirma besh yildan olganmiz”-deb eslaydi O‘zbekiston Xalq shoiri Shukrullo.Ushbu fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, qatag‘on davrining yovuz maxluq deb atalmish shaxslari ijodda serqirra o‘rinlarni egallagan o‘zbek o‘g‘lonlarini o‘zlari yashab yurgan zamin tuprog‘iga zor qilib ularni begona yurtlarning sovuq zax yerlariga mahkum qilganlar. Shunday qaro taqdirga ko‘ngan Usmon Nosirlar o‘sha fojiali sovuq yerlarda ham o‘zlarining vatanlarining isi urib turgan tomirlaridagi qon bilan sovuq Sibr turmalari devorlariga ijodlaridan she‘rlar bitib ham yengilmaganlar.Asrlarda mangu qolib o‘zbeгимni ziyoli qilaman deb mehnat qilgan fidokor Cho‘lponda nima ayb edi,shuncha qilgan mehnati evaziga Bo‘zsuv yerlarida ko‘z yoshlari bilan qoni oqib achchiq qismatga erishdi holos. O‘zbek adabiyotida shuncha tuhmatlar ostida qolgan umrlari xazon bo‘lgan bunday fidokorlarimiz afsuski kam emas.Qanchadan qancha qon qaqshab o‘g‘lim deya o‘lib bo‘ldi hokisor o‘zbek onalari.Hech qachon Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Usmon Nosir kabi ma‘rifatparlar xotirasi o‘lmaydi,urishda qaro farzandlarimni qayta ko‘rarmikinman deb o‘zga yurtning sovuq tupog‘lari tagida yotgan og‘lonlar dillarda o‘lmaydilar. Ularning nomlari ham ijodlari ham mangu va abadiydir.

Xulosa

Mustaqillik davridan so‘ng yozilgan barcha asarlar ularning xotirasiga qo‘yilgan haykalar, nomlari berilgan ko‘chalar, muyezlar, xiyobonlar, ijod maktablari har doim ularning hotirasi bilan birga yashaydi. Erkin A‘zamning “Shoirning to‘yi” qissasi ichida alam bilan Vatan tuyg‘usi jo‘sh urib vafot etgan barcha ijodkorlar xotirasiga bag‘ishlanadi. Umr bir katta yo‘lkim uning chuqurliklari bilan birga bekatlarida yaxshi va yomonlar, inson nomiga noloyiq mavjudodlar yashash uchun kurashishimizga bir sababdir. Zerokim urushda nohaq shahid ketgan insonlar nomi haligacha ilmiy isbotlar bilan oqlanmoqda. O‘zbek o‘g‘lonlari xotirasi dillarda mangudir.

Adabiyotlar:

1. Erkin A‘zam Shoirning to‘yi. Kechagi kundan rivoyat. Xurshid Davron Kutubxonasi.
2. O‘razboyeva M. Ayol xarakterini ochishga badiiy nutqning o‘rni.
3. Erkin A‘zamning badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to‘plami. -T.: Turon zamin ziyo. 2014. -304 b.
4. Sovet davrida qatag‘on qilinib, 90 yildan so‘ng oqlangan 173 o‘zbek. Oyina <https://oyina.uz/uz/article/1317>.